

BUDJET TASHKILOTLARIDA PUL OQIMLARI TO'G'RSIDAGI HISOBOTNI TAKOMILLASHTIRISH

Raxmonjonov Nozimjon Yusufjon o'g'li

+998 88 256-05-05

E-mail: raxmonjonovnozimjon30@gmail.com

Bank-moliya akademiyasi magistranti

DMNA-2023/2 guruh

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14552141>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi budjet tashkilotlarida pul oqimlari to'g'risidagi hisobotlarni takomillashtirish orqali aylanma mablag'larni samarali nazorat qilish va tahlil qilish imkoniyatlarini oshirish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu hisobotlarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashtirish uslublari va ularning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqot natijasida budjet tashkilotlarida moliyaviy boshqaruvni yaxshilash hamda investitsion faoliyatni samarali rejalashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, moliyaviy va buxgalteriya hisobi, iqtisodiy strategiya, buxgalteriya hisobotlari, innovatsiya, raqamlashtirish jarayoni, nazorat tizimi, investitsion faoliyat, pul oqimlari boshqaruvi, budjet tashkilotlari tahlili.

Abstract: This thesis examines the improvement of cash flow reporting in budget organizations to enhance the effectiveness of controlling and analyzing working capital. It also analyzes methods for aligning these reports with international financial reporting standards and their practical significance. Based on the results of this research, recommendations are developed to improve financial management and effectively plan investment activities in budget organizations.

Keywords: International Financial Reporting Standards (IFRS), financial and accounting management, economic strategy, accounting reports, innovation, digitalization process, control systems, investment activities, cash flow management, budget organization analysis.

KIRISH

Hozirgi iqtisodiyot jadal rivojlanayotgan bir vaqtda tashkilotlar tomonidan pul oqimlari to'g'risida hisobotda foydalanish imkoniyati bo'lmagan yirik miqdordagi pul mablag'lari va pul mablag'lari ekvivalentlari to'g'risidagi ma'lumot tashkilot rahbariyati izohlari bilan birga oshkor etilishi pul oqimlarini takomillashtirish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Hamda tashkilotlar balansidagi pul mablag'lari va pul mablag'lari ekvivalentlaridan foydalana olmaslik holatlari ham kuzatilishi mumkin. Masalan, valyuta ayirboshlash bo'yicha cheklovlar mavjudligi. Bunday holda hisobot tuzishda qo'shimcha ma'lumotlar keltirilishi foydalanuvchilarga tashkilotning moliyaviy ahvoli va likvidlik darajasini tushunishlari uchun foydali bo'ladi. Bunday ma'lumotlar moliyaviy hisobotning izohlarida tegishli tushuntirishlar bilan birga oshkor etilishi lozim hamda ularda quyidagilarni ifoda etilishi kerak: kelajakda operatsion faoliyat va kapital majburiyatlarini qaytarish uchun taqdim etilishi mumkin bo'lgan, foydalanilmagan qarz mablag'lari (kredit liniyalari) miqdori, foydalanilishi cheklangan pul mablag'lari va pul mablag'lari ekvivalentlari miqdori va cheklanishi hisobot davri mobaynida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ulushlarini yoki qarz vositalarini sotib olish va sotish bilan bog'liq quyidagi umumlashtirilgan ma'lumotlarni oshkor qiladi: oldi-sotdi shartnomasining umumiy summasi oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha pul mablag'lari va pul mablag'lari ekvivalentlari ko'rinishida olingan yoki to'langan summasi sotib olingan yoki

sotilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ulushlari bo'yicha pul mablag'lari va pul mablag'lari ekvivalentlarining miqdori sotib olingan yoki sotilgan deb tan olingan aktiv va majburiyatlarning qiymatini ko'rsatishni oshkor qiladi. Yuqorida keltirilgan sabablar ko'rsatilmasa ya'ni oshkor etilmasa davlat budjetini talon-taroj qilishini oldini olish va pul aylanmalarida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bu o'z navbatida budjet tashkilotlaridagi pul aylanmalarini nazorat qilish orqali davlat xaridlarini kamaytirish va oldini olish maqsadida ko'plab ishlar olib borishga yo'l ochadi.

Bu tezizning maqsadi tashkilotlarning pul mablag'lari va pul ekvivalentlaridagi avvalgi o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlarni hisobot davrida operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatlar bo'yicha pul oqimlari sifatida tasniflaydigan hisobotni tuzishdan iborat hisoblanadi

Pul oqimlari to'g'risida hisobotdan pul oqimlari prognozi to'g'riligini tekshirish vaqtida tashkilotlarning foyda olish va narx o'zgarishi o'rtasidagi ta'sirini tahlil qilish uchun foydalanilmaydi.

Pul oqimlari to'g'risida hisobot moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun tashkilotning pul mablag'larini va pul mablag'larining ekvivalentlarini jalb etishni baholash imkonini beradi. SHuningdek, pul oqimlari to'g'risida hisobot tashkilotning operatsion faoliyati natijalari bo'yicha hisobotning taqqoslanuvchanligini oshiradi, chunki u bir xil operatsiyalar uchun turli hisob usullaridan foydalanishni oldini oladi. O'tgan hisobot davrlaridagi pul oqimlari to'g'risida hisobotdan keyingi yillar uchun pul oqimlari miqdorini aniqlash ko'rsatkichi sifatida foydalaniladi. Bu avvalgi davrlardagi pul oqimlarini qanchalik to'g'ri prognoz qilinganligini hisob-kitob qilish uchun foydali hisoblanadi

Pul oqimlari to'g'risida hisobotda pul tushumi manbalari, hisobot davrida tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun sarflangan mablag'lar hamda hisobot sanasidagi pul mablag'lari qoldig'i ko'rsatiladi. Tashkilotlarning pul oqimlari to'g'risida hisobot ko'rsatkichlari moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga hisobot bo'yicha hamda tegishli qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni beradi. SHuni takidlash kerakki pul oqimlari to'g'risida hisobot ko'rsatkichlari foydalanuvchilarga tashkilotlar o'z faoliyatini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni qanday shakllantirganligi va bu mablag'lardan qanday foydalanganligini aniqlash imkonini beradi. (O'zbekiston Respublikasi byudjet hisobining standarti (14-sonli BHS) «Pul oqimlari to'g'risida hisobot»)

Pul oqimlari to'g'risida hisobotda pul tushumlari va to'lovlari uchta asosiy faoliyatga ajratiladi: operatsion faoliyat, investitsion faoliyat va moliyaviy faoliyat. Tashkilotlarning pul oqimlariga, shuningdek bankdagi valyuta hisob raqamlaridagi qoldiqlariga operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatdan tashqari valyuta ayirboshlash kurslaridagi farqlar ham ta'sir qiladi.

Pul oqimlari pul mablag'lari yoki pul mablag'lari ekvivalentlariga mos keladigan komponentlar o'rtasidagi harakatlarni o'z ichiga olmaydi, chunki ushbu komponentlar tashkilotning pul mablag'larini boshqarish bilan bog'liq bo'lib, uning operatsion, investitsion yoki moliyaviy faoliyatining bir qismi emas. Pul mablag'larini boshqarish ortiqcha pul mablag'larini pul mablag'lari ekvivalentlariga investitsiya sifatida kiritishni o'z ichiga oladi. Pul mablag'lari ekvivalentlari ko'p hollarda investitsiyalar yoki qisqa muddatli pul majburiyatlarini qoplash uchun mo'ljallangan bo'ladi. Investitsiyalarni pul mablag'lari ekvivalenti sifatida ko'rib chiqish uchun investitsiyalar pul miqdoriga osonlik bilan

aylantirilishi va qiymat o'zgarishi xavfi sezilarsiz, ya'ni umumiy qiymatning 5 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda bo'lishi kerak. Investitsiyalar qisqa muddatlarda, ya'ni sotib olish kunidan boshlab kamida uch oy yoki undan kam muddatda qoplanish imkoniyati mavjud bo'lsa, bunday investitsiyalar pul mablag'lari ekvivalenti hisoblanadi. Korxonalar pul mablag'lari va pul mablag'larining ekvivalentlari tarkibiy qismlarini pul oqimlari to'g'risida hisobotda aniq ifoda etadi va pul oqimlari to'g'risida hisobotda ko'rsatilgan miqdorlarni Moliyaviy holat to'g'risida balans hisobotida keltirilgan ko'rsatkichlar bilan solishtirish uchun taqdim etadi.

Sof pul mablag'lari tushumini hosil qilish uchun foydalaniladigan aktivlar kelgusidagi iqtisodiy foyda bo'lgan aktivlar sifatida tavsiflanadi. Aktivlardan foydalanish maqsadlarini to'liq va o'z vaqtida qamrab olinishini ta'minlash uchun aktivlarning asosiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ular kelgusidagi iqtisodiy foyda yoki xizmat ko'rsatish salohiyati bo'yicha aktivlar sifatida tasniflanishi hamda Sof capital sifatida belgilanadi va balansda moliyaviy hisobotda aktivlar hamda majburiyatlar o'rtasidagi farq summasi natijasida shakllanishini ko'rsatib beradi.

Pul oqimlari to'g'risida hisobotda hisobot davridagi pul oqimlarining operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatlar kesimidagi harakati to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilishi to'g'risida ma'lumot beradi. Ushbu faoliyatlarning tasniflanishi tashkilotning moliyaviy holatiga, pul mablag'lari va pul mablag'lari ekvivalentlari hajmiga tegishli faoliyatning ta'sirini baholashga imkon beradigan ma'lumotlar bilan moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni ta'minlaydi. Ushbu ma'lumotdan faoliyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni baholash hamda operatsiya turli xil faoliyat turlari bilan bog'liq bo'lgan pul oqimlarini o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, agar kredit bo'yicha pul mablag'larini to'lash foizlar va qarzning asosiy miqdorini o'z ichiga olsa, foizlarni to'lash operatsion faoliyatga, asosiy qarz miqdorini to'lash esa moliyaviy faoliyatga tegishli bo'lishi mumkin.

Sof pul oqimlari miqdori va tashkilotning operatsion faoliyatini saqlab qolish mulk egalari dividendlarni to'lash va moliyalashtirish manbalarini jalb qilmagan holda yangi investitsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini aniqlashga yordam beradi. Operatsion faoliyatdan kelib tushadigan pul oqimlarining aniq tarkibiy qismlari to'g'risidagi ma'lumotlar operatsion faoliyatdan keladigan kelgusidagi pul oqimlarini prognoz qilish uchun foydalaniladi. Asosiy vositalarni sotish bo'yicha operatsiyalar tegishli davrning sof foydasi yoki zararini hisoblashda foyda yoki zararga olib kelishi mumkin. Bunday operatsiyalardan kelib chiqadigan pul oqimlari investitsion faoliyatdan keladigan pul oqimlariga olib boriladi. Biroq, ijara uchun mo'ljallangan va sotuvga qo'yilgan asosiy vositalarni qurish yoki sotib olish uchun sarflangan mablag'lar operatsion faoliyat bilan bog'liq pul oqimlari hisoblanadi. Korxonalar ommaviy savdoga qo'yiladigan yoki savdo qilish uchun mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar va qarz majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin, bu holda ularni maxsus qayta sotish uchun mo'ljallangan zaxiralar sifatida tasniflash lozim. SHu sababli, qimmatli qog'ozlarni ommaviy joylashtirish yoki ular bilan savdo qilish natijasida paydo bo'lgan pul oqimlari operatsion faoliyat sifatida qaraladi. SHuningdek, xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim etilgan pul shaklidagi bo'naklar va qarzlarni tashkilotga pul tushumini olib keladigan asosiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan operatsion faoliyatda aks ettiriladi.

Investitsion faoliyatdagi pul oqimlarini alohida oshkor qilish muhimdir, chunki u tashkilotga kelajakda xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan resurslarni sotib olish uchun qancha

xarajatlar sarflanganligini ko'rsatadi. Quaidagilar Investitsion faoliyat turlari hisoblanadi: asosiy vositalarni, nomoddiy va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotib olish uchun pul o'tkazmalari (bularga tajriba-loyiha ishlari uchun kapitalizatsiya qilinadigan xarajatlar va asosiy vositalarni tashkilot tomonidan o'z mustaqil ravishda qurishi davrida amalga oshirilgan to'lovlar kiritiladi), asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotishdan tushgan pul tushumlari va boshqalar kiradi.

Moliyaviy faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlarning alohida oshkor etilishi katta ahamiyatga ega, chunki bu ma'lumotlar tashkilotni kapital bilan ta'minlovchilar talablariga muvofiq kelgusidagi pul mablag'lari harakatini prognoz qilishda foydalaniladi. Quaidagilar moliyaviy faoliyatning tarkibi xoblanadi: qarz majburiyatlari, veksellar, obligatsiyalar va boshqa qisqa yoki uzoq muddatli qarzlarini jalb qilishdan pul tushumlari, moliyaviy lizingni to'lash uchun lizing oluvchining pul to'lovlaridan iborat. (Lex uz T.Ishmetov)

Umumiy xulosa qilib aytadigan bo'lsam, quaidagi uslubiyotlardan foydalanilishi va shu operatsiyalardagi kamchiliklarni kamaytirish kerak:

yirik davlatlarning tajribasini o'rganish, shu soha vakillarini kerak bo'lsa o'sha davlatlarga malaka oshirib kelishga jo'natish (xattoki dasturchi IT mutaxassislarini ham);

- shu bo'yicha qulay dasturlarni yaratish (masalan, BHMSlarini provodkasini bersa - BHXSlarining provodkasi avtomatik ravishda hisoblanadigan);

- malakasini oshirib kelgan soha vakillari: budjet tashkilotlari, yirik soliq to'lovchi korxonalar va shu kabi yirik faoliyat ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning bosh hisobchi va ichki auditorlariga "Milliy standartlardan" - "Xalqaro standartlaga" to'liq muvofiqlashtirgunicha dars tashkil qilib, yordamlashish (bu bo'yicha alohida tashkilot tashkil qilib mutaxassislarni jalb qilish).

- Pul mablag'lari yoki pul mablag'lari ekvivalentlarida to'lovlarni talab qilmaydigan investitsion va moliyaviy operatsiyalar pul oqimlari to'g'risida hisobotdan chiqarib tashlanishi kerak. Bunday operatsiyalar (tranzaksiyalar) bo'yicha ma'lumotlar moliyaviy hisobotning investitsion va moliyaviy faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlarining boshqa bo'limlarida ko'rsatilishi kerak.

- Pul mablag'lari bilan bog'liq bo'lmagan hisob-kitoblar pul oqimlari to'g'risida hisobotdan chiqarib tashlanishi lozim, chunki ushbu hisob-kitoblar joriy davrdagi pul oqimlari bilan bog'liq emas yani aktivlarni almashtirish, majburiyatlarni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish yoki moliyaviy lizing orqali aktivlarni sotib olish, qarz majburiyatlarni ulushga (kapitalga) aylantirish.

- Pul oqimlari to'grisidagi hisobotni to'laqonli jahon standartlaridan olish va u ni to'liq amalyotga tadbiiq qilish kerak.

XULOSA

Ushbu tadqiqotda budjet tashkilotlarida pul oqimlari to'g'risidagi hisobotlarni takomillashtirishning ahamiyati va zarurati keng yoritildi. Tadqiqot natijasida budjet tashkilotlarida moliyaviy oqimlarni samarali boshqarish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Pul oqimlari hisoboti xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashtirilishi natijasida budjet tashkilotlarining moliyaviy shaffofligi va boshqaruv samaradorligi oshiriladi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy strategiyani to'g'ri rejalashtirish, investitsion faoliyatni rivojlantirish va budjet mablag'laridan oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Shuningdek, raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy

etish orqali hisobotlarning aniq va ishonchli tayyorlanishi, ularni real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyatlari kengaytiriladi. Bu jarayon nazorat tizimining kuchayishiga va iqtisodiy samaradorlikning oshishiga olib keladi. Umuman olganda, ushbu tadqiqot natijalari budjet tashkilotlarining moliyaviy boshqaruvini mustahkamlash va xalqaro standartlarga moslashtirish yo'nalishida muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Toshkent sh., 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832 sonli. <https://lex.uz/docs/3806053>.
2. SH. Mirziyoyev, PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 24.02.2020.
3. Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2019. – 227 b.
4. O'zbekiston Respublikasi byudjet hisobining standarti (14-sonli bhs) «pul oqimlari to'g'risida hisobot»ni tasdiqlash to'g'risidagi
5. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi.
6. O'zbekiston Respublikasi byudjet hisobining standarti (14-sonli BHS) «Pul oqimlari to'g'risida hisobot»
7. Ipsas
8. Lex.uz
9. IFRS.org
10. www.scientificprogress.uz
11. Wallstreetmojo.com